

## 12-13 YOSHLI FUTBOLCHILARNING TAYYORLASH JARAYONIDA MANTIQIY FIKR YURITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI VA O‘YIN MASHQLARIDAN FOYDALANISH

**Sattarov Ashraf Eshaliyevich**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali.

[sattarov.ashraf76@gmail.com](mailto:sattarov.ashraf76@gmail.com)

**Asadov Faxriddin**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti.

### ANNOTATSIYA

*Maqolada yosh futbolchilarning sheriklari bilan hamkorlikda o‘yin vaziyatlaridan unumli foydalanish. Psixo-pedagogik tadqiqotlarning xulosalari va jamoaviy harakatlarning ustunlik tomonlari keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *harakatli o‘yinlar, futbol, jismoniy, texnika, taktika, psixofiziologik faktorlar.*

## THE APPLICATION OF MOTOR AND GAME EXERCISES FOR THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING IN THE TRAINING OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS

**Sattarov Ashraf Eshalievich**

Shahrisabz branch of Tashkent institute Chemical Technology.

**Asadov Fakhridin**

Shahrisabz State Pedagogical institute.

### ABSTRACT

*In the article, the effective use of the game situations of young players in cooperation with their partners. Conclusions from psycho-pedagogical research and a column of collective actions sides are listed.*

**Key words:** *outdoor games, football, physical, technical, tactical, psychophysiological factors.*

### KIRISH

Shu narsa ma'lumki "yulduzlar"dan tashkil topgan jamoa har doim ham yuqori natija ko'rsata olmaydi. Jamoaning harakat samaradorligi har bir futbolchining

imkoniyatlari, sheriklari bilan hamkorlikda ko‘zlangan maqsad sari intilishlari asosida yotadi.

Sport sohasidagi ayrim mutaxasislarning bu masalada fikrlarini har xil ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ba’zi olimlar har bir futbolchi shaxsiy imkoniyatlari yuqori bo‘lsa jamoasiga foydasi tegishini aytishsa, ayrimlari jamoaviy harakatda sheriklari bilan hamkorlikni samarali olib boradiganlarni ustunligini ta’kidlaydilar. Futbolchi o‘z harakatini sherigining harakatiga hamohang bog‘lay olsa, unda sifat bo‘lishi mumkin, qachonki o‘yinchi muhim malakalarni egallab bo‘lib, unda ham koordinasiyalash qobiliyatini sherigi harakatiga uyg‘unlashtirgan holatda samaradorlikka erishish mumkin. Musobaqa va o‘yin mashg‘ulotlarida har bir futbolchi jamoadoshlari bilan muvaffaqiyatli hamkorlikni amalga oshirish mumkin, ya’ni: to‘pni qabul qilish jarayonida “ochilish”, “devor” usulini bajarish, joy o‘zgartirgan paytda sherigining xududini himoya qilish kabilardir.

Ochilish – bu futbolchining sheriklaridan to‘p olish uchun sharoit qulay bo‘ladigan joyga o‘tishidir. Mohirlik bilan ochilish uchun hujumchi u yoki bu vaziyatni qanchalik qulayligini juda yaxshi bilishi kerak. Eng qulay joyga vaqtida chiqib olish hujumchi va unga qarshi o‘ynayotgan himoyachini tezkorlik hislatlariga, sheriklarining harakatiga va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Jamoa azolari o‘zaro bir-birlarini tushunishi, kelishib harakat qilishi uchun har bir o‘yinchi jamoada va jamoa uchun fikr yurita bilishi kerak. Bu holatda o‘yinchilar jamoa fikrining qo‘zg‘atuvchilari va ishtirokchilari bo‘lishlari kerak. O‘yinda guruh taktik harakatlaridan keng foydalaniladi. Ular “devor”, “chalishtirish”, “to‘pni qoldirish” deb nom olgan kombinatsiyalardan iborardir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Psixopedagogik tadqiqotlardan ma’lumki, faol fikrlash qobiliyati qo‘ydagi shartlarga amal qilganda: birinchidan, ta’lim mazmuni inson uchun sub’ektiv ahamiyatga ega bo‘lganda va ikkinchidan, o‘quv dasturlari uning qo‘lidan keladigan bo‘lganda shakllanadi. O‘quv dasturining qo‘ldan keladigan qulay bo‘lishi biror mashqning organishda qiyinchiliklar tug‘dirmaydi. Agar futbolchi bu qiyinchiliklarni muvaffaqiyat bilan engsa, bilib olishga qiziqishi mustahkamlanadi va rivojlanadi.

Vazifalarni tezkor bajrinishda har qanday taktik harakatni samaradorligi fikrlash tezligi va qabul qilingan ma’lumotlarni anglash, fahmlashga bog‘liq. Harakatlarning rang-barangligi vazifalarni tanlash, sheriklar bilan hamkorlik, har qanday vaziyatda qabul qilinishi kerak bo‘lgan qarorni tezligi bilan belgilanadi. Sekin qabul qilingan qaror o‘yinni samaradorligini pasaytiradi va harakatni befoyda bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun ko‘proq diqqatni qarorning tezkorligiga qaratish talab etiladi.

Qarorni tez va uzluksiz qabul qilinishi futbolchining murakkab reaksiya vaqtida eng muhim holatdir. Tezkor fikrlash jarayonida odam avvalo harakat kuzatilayotgan elementni ongida fikrlaydi va vaziyatni hisobga olgan holda harakatni boshlaydi. Bundan oldingi harakat rejasi bilan amalga oshiriladi. O'yinda harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishda o'yinchining intellektual salohiyati darajasi bilan bog'liqdir.

Ijodkorona sifatlarni futbolda qayd qilish qiyin. U har kimda har doim ham nomoyon bo'lavermaydi. Futbol tajribasidan kelib chiqib aytganda, bu qobiliyatni sportchida qachon paydo bolishini bilmaymiz. Shini yodda tutish kerakki, ijodkorona faoliyatni nomoyon etish faqat sportchining o'ziga emas balki uning sheriklari va taktik harakatlarning dasturiy tuzilmasiga ham bog'liq bo'ladi.

Ijodkorona qobiliyat ayrim o'smirlarda hujum vaziyatlarida tez-tez nomoyon bo'ladi, bunda: "devor" usulini qo'llaydi, sherigini diqqatini u yoki bu hamohanglikka tortadi, tez va aniq to'p oshirishlarga urinadi, "aylanma" zarbalarni bajaradi va hokazo. Yosh futbolchilarning bu qobiliyatini qiyin vaziyatlarda qanday bajarishini aniqlash va kuzatib borish kerak. Futbolchida muvaffaqiyatli o'yinlari kuzatilsa, ularning

ijodkorligi xuddi o'z-o'zidan bo'layotgan harakatlar tufayli nomoyon bo'layotgandek tuyuladi. Haqiqatdan ham shunday, to'pni olib borayotgan o'yinchi bir sherigini ko'rgach, ikkinchi sherigining qanday holda turganini taxminan bila oladi.

Samarasiz chqqan taktik harakatlarni aql bilan yangidan-yangiligicha qayta-qayta takrorlash kerak. omadsiz harakatlarni sabablarini aniqlash, o'ylangan harakatlarni bajara olmagan guruhga yo'l qo'ygan xatolarni tushuntirish kerak. Yosh futbolchilarni o'yin vazifalarni hal etishda ijodkorona aloqalarni nomoyon bo'lishi diqqatga sazovordir va bu o'z-o'zidan ijodga ilhom keladi.

Masofaning ko'z bilan chamalashning rivojlanishi futbolchilar mahoratining oshishi bilan bevosita bog'liq, chinki har bir texnik usulni to'g'ri va oz vaqtida bajarish harakatdagi o'yinchilar va orasidagi masofani aniq baholash qobiliyati bilan aloqadordir. O'yinchi o'z vaqtida to'pga chiqishi uchun to'pni yo'llashi va uchish traektoriyasini bilishi, to'pga sheriklarigacha, darvozagacha bo'lgan masofani aniq chamalashi nafaqat to'p yo'naltiriladigan masofani to'g'ri baholashi uchun, balki ushbu masofadan to'pga beriladigan zarb kuchini olchash uchun kerak.

Masofaning ko'z bilan chamalash sportchining mashqlangan holati bilan bevosita bog'liqligi tadqiqotlarda kuzatilgan. Chunonchi futbolchilarning ko'z bilan aniq mashqlanmagan holatiga nisbatan mashqlangan holatda o'rtacha 35-40% ni tashkil qilishi kuzatilgan. Shug'ullanuvchilarning vazifalarni qiziqish bilan hal qilishga va hal qilish yo'llarini ko'pligini ongiga singdirib borish kerak. Musobaqada

ulardan biri boshqaruvni o‘z qo‘liga olib, taktik vazifalarni ko‘z ilgamas darajada raqibga qarshilik ko‘rsatsa, ikkinchisi aql bilan hujumni mantiqiy davomini tashkil qilishi, boshqasi harakatlarga faol ishtirok etishi zarur.

### NATIJARLAR

1. Maydonda 3 guruh futbolchilar joylashgan. B guruh o‘yinchilar hujumchilar rolini bajarishadi. Har doim goh u darvozaga, goh bu darvozaga hujum uyushtirishadi. Bir necha marotaba mashq takrorlangandan so‘ng guruhlar navbat bilan joy almashadilar.

2. Ikkita bir xil o‘lchamdagi kvadratlar (15x15) bir-biridan 15-20 metr oraliqda joylashgan. Har birida 3-4 o‘yinchi va ular bilan 2-3 ta “betaraflar” bor. O‘yin ikki marotabagacha oyoqda to‘p tepish sharti bilan birinchi kvadratdagi “betaraflar” (bittasi yoki hammasi) bu guruhdagi o‘yinchilar tomon hujum uyushtirishadi. Qachonki kvadratdagi o‘yinchilarda to‘pni nazorat qilish yoki o‘zida saqlash qiyinlashsa, ular uzun to‘p oshirish bilan boshqa kvadratga o‘tkazishadi va mashq davom etadi.


3. Maydonda 60x30 metrlik ikkita kvadrat hosil qilinadi. Ikkita jamoa 5-6 kishidan o‘ynashadi.

*Vazifa qo‘yidagicha:* To‘pni egallab raqib maydonida ko‘proq to‘p oshirishlar va ko‘proq vaqt top bilan bo‘lish talab etiladi. To‘p oldirib qo‘yilgan taqdirda uni raqib maydonida egallashga harakat qilish yoki tezda o‘z maydonga qaytish kerak. Chunki, maqsad kvadratlarni himoya qilish hisoblabadi. To‘p egallangandan so‘ng yana hujum uyushtiriladi.

#### *Tezkor xotirani rivojlantiruvchi mashqlar.*

1. Ikki o‘yinchi navbati bilan uchunchi o‘yinchiga to‘p oshirishadi. To‘pni qabul qilgan o‘yinchi tezda kimdan qabul qilgan bo‘lsa uning o‘ziga qaytaradi.

*Variant.* Ikki o‘yinchi o‘rtadagiga to‘p oshiradilar, o‘z navbatida qarama-qarshi tomonda turib navbati bilan egallab turgan nuqtalarini almashtirishadi. A o‘yinchi javob to‘p oshirishni bajaradi va B, V o‘yinchilarni joy almashtirishini kuzatishi kerak. Javob to‘p oshirgandan so‘ng A o‘yinchi sherigidan to‘pni qabul qilish uchun orqasiga buriladi (1-rasm).



1-rasm

2-rasm

3-rasm

2. A va G o'yinchilar to'p bilan bo'lishib mashq boshlashadi hamda to'pni B va D o'yinchilarga oshirishadi so'ngra shu ondayoq 1 va 2 chi nuqtalarga yugurishadi. B va D o'yinchilar yana to'pni ularga qaytarib, o'zlari diogonal bo'yicha joy almashadilar. A va G o'yinchilar 1 va 2 chi vaziyatdan to'pni qabul qilib olgandan so'ng, to'pni V va E o'yinchilardga oshirgandan so'ng, o'zlari joy almashadilar: A o'yinchi G o'rniga, G esa A ning o'rniga. V va E o'yinchilar (bir vaqtning o'zida) to'pni A o'yinchiga oshiradi (yugurib G ning o'rniga o'tganda) va o'zlari diogonal bo'yicha joy almashadilar (2-rasm).

3. O'yinchilar kvadratning belgilangan burchagida joylashishadi (3-rasm). A o'yinchi 1 chi burchakdan to'pni 2 chi burchakdagi B o'yinchiga uzatadi va o'zi ham u erga qarab yuguradi. B o'yinchi esa to'pni qabul qilib diogonal bo'yicha 4 chi burchakdagi G o'yinchiga yo'naltiradi va o'zi bo'sh turgan 1 chi burchakka yuguradi. G o'yinchi to'pni 3 chi burchakdagi V sherigiga oshiradi hamda o'zi ham o'sha tomon yuguradi. V o'yinchi diogonal bo'yicha to'pni 1 chi. burchakni yugurib kelib to'ldirgan B o'yinchiga oshiradi va o'zi bo'sh qolgan 4 burchakka yuguradi. 1 chi burchakdan B o'yinchi yana to'pni 2 burchakdagi A sherigiga uzatadi. Shunday qilib A o'yinchi to'pni qabul qilib olgandan so'ng faqat B o'yinchi bilan o'rin almashadilar. G o'yinchi esa faqat V sherigi bilan o'rin almashadi.

### **Vaziyatni to'g'ri baholash va maydonni keng ko'ra olish qobiliyatini rivojlantiruvchi mashqlar.**

1. O'yinchi to'p bilan harakatda, undan o'ng va chap tomonda bir nafardan o'yinchi bayroq bilan yuguradi. To'p bilan bo'lgan o'yinchi to'pni faqat bayroq ko'targan o'yinchiga oshirishi kerak. To'pni qabul qilgan o'yinchi oldinga harakatlanadi va o'zi shu jarayonda sherigini ham kuzatishi kerak. O'yinda ikkita bayroqni ham bir vaqtning o'zida ko'tarish mumkin emas.

2. Yarim aylana shaklda (4-5) o'yinchilar 6-8 m radiusda joylashadilar. Ularga qarshi bir o'yinchi to'p bilan janglyorlik qiladi va bir vaqtning o'zida aylana ichidagi o'yinchilarni kuzatadi, nazorat qiladi. Uning orqa tomonida turgan murabbiy, aylanada turgan o'yinchilarga (har qaysisiga kutilmaganda) signal beradi. Murabbiy tomonidan belgilangan o'yinchi signal orqali qo'l ko'tarib maydonni (o'ng, chap) o'rtasiga qarab yuguradi va shu jarayonda boshqa o'yinchilar ham yuguradilar. Janglyorlik qilgan o'yinchi to'pni o'sha tomon aniq oshirishi kerak. Oxirida qo'lib ketgan o'yinchi janglyorlik qilgan o'yinchi bilan o'rin almashadi.


### **Mantiqiy fikrning kengligi va diqqatni jamlashni rivojlantiruvchi mashqlar.**

1. Maydonning bir qismida uch o'yinchi (A,B,V) hujumchi rolini bajarishadi (4-rasm) va yana uch o'yinchi himoyachi hisoblanishadi. Murabbiy to'pni

hujumchilardan biriga oshiradi. Himoyadagilarning vazifasi raqibni aldab o'tishi va to'pni o'z o'rnini o'zgartirib turgan murabbiyga qaytarish.

2. A va B guruhdagi o'yinchilar 30-40m o'raliqdagi masofada joylashadilar (5-rasm). A guruh o'yinchilar to'p bilan harakatlanishadi va B guruhdagi bir o'yinchini o'z oldiga chorlab to'pni unga oshiradi hamda B guruhdagi bo'sh qolgan o'ringa qarab yuguradi. B guruhdagi o'yinchi esa to'pni qabul qilib olib, harakatlanadi va A guruhdagi o'yinchilardan birini o'z oldiga chorlaydi, to'pni oshirib uning o'rnini egallash uchun yuguradi. O'yin shu tariqa davom etadi.

3. Harakatsiz holatda 3-4 ta to'pni navbati bilan oshirish (6-rasm). E o'yinchi mashqni boshlaydi. B, G, V, D, A o'yinchilar to'pni qabul qilib olib o'z navbatida sheriklariga oshiradi va navbatdagi to'p oshirilishini kutadi (rasmdagi holatda joylashishadi).



4-rasm

5-rasm

6-rasm

4. Maydonning bir qismida 6-8 o'yinchi to'p bilan o'zlari istagan tomonga harakatlanishadi (janglyorlik qiladi) va bir vaqtning o'zida joy o'zgartirib turgan murabbiyni diqqatdan qochirmasligi shart. Bir necha soniyalar o'rasida murabbiy o'yinchilardan biriga barmoqlarini ko'rsatadi. O'yinchi ovoz chiqarib necha sonligini aytishi kerak.

5. Ikki guruh (6-8 kishidan) jarima maydoni tashqarisida maydonning teng ikki qismida bo'linishib to'p surishadi va bir vaqtning o'zida murabbiyni nazardan qochirmaydi. Signal bo'yicha guruhlar joy almashadilar.

**Vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyatini rivojlantiruvchi mashqlar.**


1. To'p bilan bo'lgan A o'yinchi, B va V sheriklariga nisbatan orqasi bilan turadi. Bularning o'rtasida himoyashi funksiyasini bajaruvchi G o'yinchi joylashadi. Murabbiyning signali bilan G o'yinchi tezda B va V o'yinchilarni "yopadi". Xuddi shu signalda A o'yinchi sheriklari tomon harakatlanib, ochiq turgan o'yinchini to'p bilan ta'minlaydi. O'yinchilar navbati bilan joy almashadilar.

2. A va B o'yinchilar bir-biriga oshiradi. A o'yinchi bilan bir chiziqda V, G o'yinchilar turadi. Bir necha to'p oshirishdan so'ng To'p A o'yinchi tomon yo'naltirilganda, B o'yinchi va G o'yinchilar tezda oldinga harakatlanib "ochiladilar", shunda B o'yinchi ulardan birini yopishga harakat qiladi. A o'yinchi vaziyatni

baholab to'pni bosh o'yinchiga oshiradi, u o'yinchi esa biroz to'p surib yana A o'yinchiga qaytarishi mumkin. Mashq bajarilgandan so'ng hamma o'z o'rniga qaytadi.

3. A o'yinchi to'p bilan hohlagan yo'nalishda harakatlanadi va shu bilan birga himoyachilar ta'qibidan qochishga harakat qilayotgan B, V sheriklarini nazardan qochirmaydi (7-rasm). Agar ulardan biri ta'qibidan qochishga ulgursa A o'yinchi to'pni unga uzatadi. Himoyadagi o'yinchi to'pni egallab olsa A o'yinchi bilan o'rin almashadi va mashq davom etadi.

4. A va B guruhning oldingi qatoridagi o'yinchilari jarima maydonchasi chizig'i atrofida to'p bilan harakatlanadi. Murabbiyning signali bilan tezda darvoza tomon burilib, Darvozabon bo'sh qo'ygan tomonga zarba yo'llashi kerak. Mashqni bajargandan so'ng o'z guruhiga qaytadi va navbatdagi o'yinchilar to'p bilan harakatlanishadi (8-rasm).



7-rasm

8-rasm

9-rasm

5. Jarima maydonning o'rtasida 8-10 m uzunlikda chiziq tortiladi. Chiziqning har ikki tomoniga to'p qo'yiladi (9-rasm). Darvozani darvozabon qo'riqlaydi. A va B o'yinchilarning vazifasi hujumchilar rolini bajarish va himoyachilar ta'qibidan qochib har xil fintlar, harakatlar bilan to'plardan biriga zarba berishdan iborat. Himoyachilarni vazifasi hujumchilarni to'p oldiga o'tkazmaslik. Mashq bajarilgandan so'ng A va B o'yinchilar himoyachilar funksiyasida qolishadi, ularning o'rniga himoyachilar A va B gurunlarga qo'shilishadi. Shundan so'ng mashq davom ettiriladi.


**O'yin paytida vaziyat o'zgarganda qarorni ham o'zgartira olish qobiliyatini rivojlantiruvchi mashqlar.**

1. B o'yinchi qo'li bilan to'pni A o'yinchiga otadi (10-rasm). U esa o'z navbatida boshi bilan to'pni qaytaradi va shu onda orqasiga o'griladi. Bu vaqtda V o'yinchi erlatib to'pni A o'yinchiga oshiradi, A o'yinchi esa yana to'pni B o'yinchiga qaytarib, V o'yinchi tomon o'griladi. Bir necha marotaba takrorlangandan so'ng o'yinchilar joy almashadilar.

*Variant.* To'pni uzatuvchi o'yinchilar hohlaganday (pastdan, yuqoridan, ko'krakdan) tashlab berishlari mumkin.

2. A va B o'yinchilar sekin-sekin, bir-birini kuzatgan holda to'p (har biri alohida) bilan harakatlanishadi. Kutilmaganda A o'yinchi o'zining to'pini B o'yinchi tomon yo'naltiradi va shu lahzada hohlagan tomonga yugurib to'pni qabul qilib olishga shaylanadi. B o'yinchi ham o'z to'pini harakatdagi o'yinchiga oshiradi va A o'yinchi yo'naltirgan to'pni qabul qilib olib yana harakatni davom ettiradi. Shundan so'ng mashqni B o'yinchi boshlaydi (11-rasm).

3. Maydon markazi chizig'ida bir o'yinchi (V) to'p bilan turadi. Uning orqa tomonida esa murabbiy bo'ladi. Chiziqdan 10-12 m uzoqlikda maydonning o'ng va chap tomonida bir-biriga qarama-qarshi A va B guruhlar joylashgan. Murabbiyning signali bilan A va B gurudagi o'yinchilarning birinchi qatordagisi tezlik bilan chiziq tomon yuguradi. V o'yinchi esa qaysi o'yinchi chiziqni birinchi kesib o'tsa unga to'pni oshiradi. To'pni qabul qilgan o'yinchi shu onda V o'yinchiga qaytaradi va qarama-qarshi gurunda navbatda turadi (12-rasm).



10-rasm

11-rasm

12-rasm

13-rasm

4. Murabbiy navbati bilan ikkita to'pni A o'yinchiga oshiradi (13-rasm). Misol uchun birinchisini oldinga (o'yinchi shu ondayoq to'pni murabbiyga qaytarishi kerak), ikkinchisini esa biroz shoshmasdan o'yinchini yon tomoniga oshiradi. Mashq bajarilgandan so'ng A o'yinchi navbatni oxiriga kelib qo'shiladi, shundan so'ng to'pni qabul qilib olish uchun B o'yinchi tayyorlanadi.

### XULOSA

O'yin paytida o'yinchilar funksonal faoliyatining rivojlanishi ular vazifalarning kengayishiga olib keladi. Bu vazifalar futbolchilardan yuksak chidamni, o'yinni yaxshi idrok etishni, murakkab o'yin faoliyatida mo'ljalga ola bilish va o'yin jarayonini boshqara bilish, sherik bilan o'zaro hamkorlik qilish, ya'ni futbolchilarning taktik qobiliyatiga katta talablar qo'yiladi.

Hozirgi futbolda ayrim "yulduz"larning individual harakatlari jamoaviy o'yinga tobora bo'ysondirilmoqda. Biroq, bu jamoada etakchilik qiladigan individual kuchli o'yinchilarning rolini zarracha kamaytirmaydi. Shuningdek improvizasiya qilish ham endilikda individual emas, balki jamoaviy ro'hda bo'lib, bu jamoa harakatlariga kutilmaganlik tusini berib, raqib rejasini buzib yuborosh uchun xizmat qiladi.



## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. А. Саттаров, М. Алиев, Т. Ўсмонхўжаев. Х. Сағдиев. Спорт ўйинлари-футбол. Тошкент-2012 й.. Илм-зиё.
2. Т. Ўсмонхўжаев, О. Турсунов, Жисмоний тарбия назарияси ва услубиёти. Тошкент-2004 й. Ўқитувчи.
3. Футбол дарслик ЎЗЖТИ нашрети 2006 й
4. N. Rahmatov., A. Sattarov.,(2021). Yosh voleybolchilar jismoniy sifatlarining o‘zaro aloqadorligi., “Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (oriens)” ilmiy jurnali.
5. A. Sattarov, N. Rahmatov. Yosh futbolchilarning tayyorlash jarayonida tezkor fikr yuritish qobiliyatini rivojlanishida harakatli va o‘yin mashqlaridan foydalanish metodikasi. “Academic Research in Educational Sciences” jurnali 2022 y.
6. A. Sattarov, N. Rahmatov Ёш футболчиларда голли вазиятларни самарали яқунлашда ўйин машқларидан фойдаланиш методикаси. International scientific journal “Interpretation and researches”. Volume 1 issue 3 | ISSN: 2181-4163 | UIF-2023: 8.2 2023y.